TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA ESG INTEGRATSIYASINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

Abduazimov Umidjon Abduazim o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisda tijorat banklari faoliyatiga ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv - ESG (Environmental, Social and Governance) tamoyillarini integratsiya qilishning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. ESG konsepsiyasining shakllanish evolyutsiyasi, uning manfaatdor tomonlar nazariyasi, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, “uch karra natija” yondashuvi hamda zamonaviy risk-menejment bilan o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Tijorat banklarining moliyaviy vositachilik xususiyatidan kelib chiqib, ESG omillarining bank faoliyatiga bevosita operatsion ta’siri bilan bir qatorda kredit va investitsiya portfeli orqali bilvosita ta’siri mavjudligi asoslangan. Xalqaro standartlar va prudensial yondashuvlar asosida ESGni bank strategiyasi, korporativ boshqaruv, kreditlash, risklarni boshqarish, portfel monitoringi va hisobot tizimiga kompleks integratsiya qilish zarurligi yoritilgan. O‘zbekiston tijorat banklari uchun ESG boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: ESG, tijorat banklari, barqaror bank faoliyati, yashil moliya, ESG-risk, iqlim riski, kredit riski, korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish, IFRS S1, IFRS S2.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning cheklanishi, ijtimoiy tengsizlik, mehnat munosabatlaridagi transformatsiyalar, korporativ boshqaruv sifati hamda manfaatdor tomonlarning biznes subyektlariga nisbatan talablari kuchayib borishi moliya institutlari faoliyatini baholash mezonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy yondashuvda tijorat bankining samaradorligi asosan rentabellik, likvidlilik, kapital yetarliligi va aktivlar sifati kabi moliyaviy ko‘rsatkichlar orqali baholangan bo‘lsa, zamonaviy sharoitda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini hisobga olmasdan bankning uzoq muddatli barqarorligini to‘liq baholash murakkablashmoqda.

ESG atamasining zamonaviy moliya tizimida keng qo‘llanilishi 2004-yilda BMT Global Compact tashabbusi doirasida tayyorlangan “Who Cares Wins” hisobotiga borib taqaladi. Mazkur hujjatda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv masalalarini investitsiya hamda moliyaviy qarorlar jarayoniga integratsiya qilish zarurati ilgari surilgan [3]. Shu tariqa ESG alohida xayriya yoki korporativ ijtimoiy mas’uliyat yondashuvidan korxona va moliya institutlarining uzoq muddatli qiymat yaratish qobiliyatiga ta’sir etuvchi omillar tizimi sifatida shakllandi.

ESGning bank sektoridagi ahamiyati boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan kengroq iqtisodiy mazmunga ega. Chunki tijorat banki nafaqat o‘zining ekologik yoki ijtimoiy ta’siri, balki kredit va investitsiyalarni iqtisodiyotning turli tarmoqlariga yo‘naltirish orqali qarz oluvchilar va investitsiya obyektlarining ekologik hamda ijtimoiy ta’siri bilan ham bog‘liq. Shuning uchun bank faoliyatida ESG integratsiyasi kredit siyosati, investitsion qarorlar, risk-menejment, aktivlar portfeli, korporativ boshqaruv va strategik rejalashtirish tizimlarini qamrab oluvchi kompleks jarayondir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi tijorat banklari faoliyatida ESG integratsiyasining ilmiy-nazariy mohiyatini ochib berish, uning asosiy yo‘nalishlarini tizimlashtirish va ESG omillarini bank boshqaruvining tarkibiy elementlariga integratsiya qilish bo‘yicha konseptual yondashuvlarni shakllantirishdan iborat. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi.

ESG konsepsiyasining ilmiy asoslarini birgina nazariya bilan izohlash yetarli emas. Uning shakllanishida manfaatdor tomonlar nazariyasi, barqaror rivojlanish konsepsiyasi, korporativ ijtimoiy

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

mas'uliyat nazariyasi, "uch karra natija" konsepsiyasi hamda zamonaviy risk-menejment yondashuvlari muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

R. Edvard Freeman tomonidan rivojlantirilgan manfaatdor tomonlar nazariyasi korxona faoliyati faqat aksiyadorlar manfaatlariga emas, balki uning faoliyatidan ta'sirlanadigan yoki unga ta'sir ko'rsatadigan barcha tomonlar manfaatlarini hisobga olish asosida tashkil etilishi zarurligini ta'kidlaydi [1]. Tijorat banki nuqtayi nazaridan manfaatdor tomonlar doirasiga aksiyadorlar bilan bir qatorda omonatchilar, qarz oluvchilar, xodimlar, davlat organlari, investorlar, mahalliy hamjamiyatlar va jamiyat kiradi. Shu jihatdan ESG bankning manfaatdor tomonlar oldidagi iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy mas'uliyatini strategik boshqaruv tizimiga aylantiradi.

ESGning yana bir nazariy asosi J. Elkington tomonidan ilgari surilgan Triple Bottom Line konsepsiyasi bilan bog'liq. Mazkur yondashuv iqtisodiy faoliyat natijalarini faqat foyda bilan emas, balki iqtisodiy natija, ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat uyg'unligida baholashni nazarda tutadi [2]. Bunday yondashuv bank faoliyatiga tatbiq etilganda "moliyaviy daromadlilik - ekologik ta'sir - ijtimoiy natija" o'rtasidagi muvozanat masalasini yuzaga chiqaradi. Bank kredit loyihasining moliyaviy rentabelligini baholash bilan birga uning atrof-muhitga ta'siri, mehnat standartlariga rioya etilishi, aholiga ta'siri va korporativ boshqaruv sifatini ham hisobga olishi lozim.

Korporativ barqarorlik bo'yicha zamonaviy tadqiqotlar ESG omillarini uzoq muddatli biznes modeli bilan bog'lash imkonini beradi. R. Eccles, I. Ioannou va G. Serafeim barqarorlik siyosatini faol joriy qilgan kompaniyalarda direktorlar kengashining ushbu masalalarga jalb etilishi, manfaatdor tomonlar bilan ishlash hamda nomoliyaviy ko'rsatkichlarni o'lchash va oshkor etish amaliyotlari nisbatan rivojlanganligini ko'rsatgan [4]. G. Friede, T. Busch va A. Bassen esa ko'plab empirik tadqiqotlarni umumlashtirib, ESG va moliyaviy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni tizimli ravishda ko'rib chiqqan [5]. Mazkur yondashuvlar ESGni faqat etik yoki reputatsion masala emas, balki moliyaviy natijalar va kapital qiymatiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan boshqaruv kategoriyasi sifatida talqin qilishga asos yaratadi.

Muallif fikricha, tijorat banki faoliyatida ESG integratsiyasi - ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv bilan bog'liq omillar, risklar va imkoniyatlarni bank strategiyasi, korporativ boshqaruvi, kredit-investitsiya qarorlari, risk-menejmenti, mahsulot siyosati va hisobot tizimiga tizimli ravishda kiritish orqali bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi hamda manfaatdor tomonlar uchun yaratiladigan qiymatni oshirish jarayonidir. Ushbu ta'rif ESGni alohida barqarorlik hisoboti emas, balki bank biznes modeliga singdirilgan iqtisodiy boshqaruv mexanizmi sifatida tushunishga imkon beradi.

Tijorat banklarida ESG integratsiyasining asosiy xususiyati moliyaviy vositachilik funksiyasi bilan belgilanadi. Sanoat korxonasining ESG ta'siri ko'proq uning ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lsa, bankda ESG ta'sirining katta qismi moliyalashtirilayotgan loyihalar orqali namoyon bo'ladi. Shu sababli bank uchun ESG-riskni o'rganishda faqat bankning o'z faoliyati emas, balki mijozlar faoliyati, kredit portfelining tarmoq tarkibi va investitsiya obyektlarining xususiyatlari ham baholanishi zarur.

1-jadval

Tijorat banki faoliyatida ESG omillarining iqtisodiy mazmuni[1]

ESG yo'nalishi	Tijorat bankida namoyon bo'lishi	Bank uchun iqtisodiy ahamiyati
E - Environmental	Iqlim risklari, uglerod sig'imi yuqori tarmoqlarni moliyalashtirish, energiya samaradorligi, yashil kreditlash, ekologik loyihalar	Kredit riski, garov qiymati, portfel konsentratsiyasi va aktivlar sifatiga ta'sir qiladi
S - Social	Moliyaviy inklyuziya, mijozlar huquqlarini himoya	Reputatsion va operatsion risk, mijozlar sodiqligi hamda

[1] Muallif ishlanmasi

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

	qilish, mehnat sharoitlari, gender tengligi, inson huquqlari, moliyaviy savodxonlik	bozor qamroviga ta'sir ko'rsatadi
G - Governance	Direktorlar kengashi samaradorligi, komplayens, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaga qarshi tizim, axborot shaffofligi	Agentlik risklarini kamaytirish, ichki nazoratni kuchaytirish va investorlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi

Ekologik omil, ayniqsa, banklarning kredit riskini boshqarishida muhimdir. Iqlim o'zgarishi natijasida yuz beradigan qurg'oqchilik, suv tanqisligi, toshqinlar yoki boshqa ekstremal ob-havo hodisalari qarz oluvchining ishlab chiqarish salohiyati va pul oqimlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunday risklar jismoniy iqlim risklari sifatida talqin qilinadi. Ikkinchi guruhni o'tish risklari tashkil etadi. Iqtisodiyotning past uglerodli modelga o'tishi natijasida ekologik standartlar, texnologiyalar, iste'molchilar talabi yoki davlat siyosatidagi o'zgarishlar ayrim tarmoqlarda faoliyat yurituvchi korxonalarning xarajatlarini oshirishi va aktivlar qiymatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu bank uchun qarz oluvchining kreditga layoqatliligi yomonlashishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Bazel Bank nazorati qo'mitasi iqlim bilan bog'liq moliyaviy risk drayverlari banklarning an'anaviy risk kategoriyalariga uzatilishini qayd etadi. Qo'mita banklar iqlim omillarining biznes modeli, strategiya, korporativ boshqaruv va risklarni boshqarish tizimiga ta'sirini baholashi zarurligini ta'kidlaydi [6]. Demak, bank faoliyatida ESG-riskni an'anaviy moliyaviy risklardan ajratilgan kategoriya sifatida emas, balki kredit, bozor, operatsion, likvidlik va reputatsion risklarning yuzaga kelishi yoki kuchayishiga sabab bo'luvchi risk drayveri sifatida o'rganish maqsadga muvofiq.

ESG integratsiyasining samaradorligi uning bank faoliyatiga qaysi darajada chuqur singdirilganligi bilan belgilanadi. ESG faqat yillik barqarorlik hisobotini nashr etish yoki alohida "yashil" kredit mahsulotini joriy qilish bilan chegaralansa, bunday amaliyotni to'liq ESG integratsiyasi sifatida baholash qiyin. Kompleks yondashuvda ESG bankning strategik maqsadlari, risk-appetiti va qaror qabul qilish tizimi bilan bog'lanishi kerak.

Birinchi daraja - strategik integratsiya. Bank strategiyasida ekologik va ijtimoiy ustuvor yo'nalishlar, moliyalashtiriladigan yoki cheklanadigan faoliyat turlari, yashil va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish maqsadlari hamda ESG natijalarini baholash mezonlari aks etishi lozim. Ikkinchi daraja - korporativ boshqaruv integratsiyasi. ESG masalalari bo'yicha direktorlar kengashi va bank boshqaruvining vakolatlari aniq belgilanib, risklar va barqarorlik bo'yicha tegishli qo'mitalarning javobgarligi shakllantirilishi zarur.

Uchinchi daraja - kredit va investitsiya jarayonlariga integratsiya. Kredit oluvchining an'anaviy moliyaviy tahliliga ESG baholash elementlarini kiritish maqsadga muvofiq. Bunda mijoz faoliyatining ekologik ta'siri, mehnat munosabatlari, qonunchilikka rioya etilishi, korporativ boshqaruv holati, iqlim risklariga ta'sirchanligi hamda reputatsion risklari o'rganiladi. Mazkur baholash kredit limiti, narxlash, ta'minot talabi, monitoring davriyligi yoki kredit kovenantlariga ta'sir qilishi mumkin.

To'rtinchi daraja - risk-menejment va portfel boshqaruvi. ESG risklari individual mijoz darajasidagina emas, balki tarmoq va umumiy kredit portfeli bo'yicha baholanishi kerak. Masalan, iqlim risklariga sezgir tarmoqlarda kreditlar konsentratsiyasi ortishi bank portfelining kelajakdagi yo'qotishlarga sezgirligini kuchaytirishi mumkin. Shu bois ESG stress-testlari va ssenariy tahlillari bankning istiqboldagi risk profilini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Yevropa Bank boshqarmasi ESG risklarini aniqlash, o'lchash, boshqarish va monitoring qilish jarayonlariga ekspozitsiya, portfel, tarmoq va ssenariyga asoslangan metodlarni kiritishni nazarda tutadi [7].

Beshinchi daraja - monitoring va hisobot tizimi. Bank ESG maqsadlari bo'yicha natijalarni o'lchashi, tahlil qilishi va manfaatdor tomonlarga oshkor etishi zarur. Bunda indikatorlarning o'lchanishi, ma'lumotlarning sifati, davriyligi va moliyaviy hisobotlar bilan uyg'unligi muhim. Ushbu

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.

bosqichlarning izchil bog‘lanishi ESGni bankda alohida tashabbus emas, balki butun biznes modeliga integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmiga aylantiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tijorat banklari faoliyatida ESG integratsiyasi zamonaviy bank boshqaruvining muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishiga aylanib bormoqda. ESG konsepsiyasining nazariy ildizlari manfaatdor tomonlar nazariyasi, barqaror rivojlanish konsepsiyasi va “uch karra natija” yondashuvi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, zamonaviy bank tizimida ushbu konsepsiya risk-menejment va strategik boshqaruv tamoyillari bilan boyitilmoqda.

Tijorat banklarining moliyaviy vositachilik funksiyasi ESG omillarining iqtisodiy ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Banklar o‘z operatsion faoliyati bilan bir qatorda kredit va investitsiya portfeli orqali real sektorning ekologik va ijtimoiy ta’siriga bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ESGni bank faoliyatiga integratsiya qilish kredit oluvchilarni baholash, kredit portfelini boshqarish, strategik rejalashtirish, korporativ boshqaruv, stress-test, ssenariy tahlili va axborotlarni oshkor etish jarayonlarini qamrab olishi kerak.

IFRS S1 va IFRS S2, Bazel qo‘mitasining iqlim risklari bo‘yicha tamoyillari hamda UNEP FI Mas’uliyatli bank faoliyati tamoyillari ESGning moliyaviy ahamiyatga ega risk va imkoniyatlarni boshqarish tizimiga aylanayotganligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston bank tizimida esa keyingi bosqichda ESG-risklarni aniqlash va klassifikatsiya qilish metodologiyasini shakllantirish, bank mijozlari uchun ESG baholash tizimini joriy qilish, kredit portfelining ESG profilini monitoring qilish, iqlim stress-testlarini rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga muvofiq barqarorlik hisobotlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ESG integratsiyasini banklar uchun qo‘shimcha nomoliyaviy talab sifatida emas, balki risklarni kamaytirish, yangi moliyaviy imkoniyatlarni shakllantirish va tijorat bankining uzoq muddatli qiymati hamda moliyaviy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv mexanizmi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Freeman R.E. Strategic Management: A Stakeholder Approach. Boston: Pitman, 1984.
2. Elkington J. Cannibals with Forks: The Triple Bottom Line of 21st Century Business. Oxford: Capstone, 1997.
3. United Nations Global Compact. Who Cares Wins: Connecting Financial Markets to a Changing World. 2004.
4. Eccles R.G., Ioannou I., Serafeim G. The Impact of Corporate Sustainability on Organizational Processes and Performance // Management Science. 2014. Vol. 60, No. 11. P. 2835–2857. DOI: 10.1287/mnsc.2014.1984.
5. Friede G., Busch T., Bassen A. ESG and financial performance: aggregated evidence from more than 2000 empirical studies // Journal of Sustainable Finance & Investment. 2015. Vol. 5, No. 4. P. 210–233. DOI: 10.1080/20430795.2015.1118917.
6. Basel Committee on Banking Supervision. Principles for the Effective Management and Supervision of Climate-related Financial Risks. Bank for International Settlements, 2022.
7. European Banking Authority. Guidelines on the Management of ESG Risks. Paris, 2025.

© 2026 International Conference on Artificial Intelligence and Applications . All Rights Reserved.